XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2021- yil yanvar-aprel oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda, milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bo'yicha viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 189,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 66,5 mln. AQSh dollariga yoki 54,1 % ga ko'paygan.

TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
	122,9	189,4	154,1 %	x
Eksport	**44,3**	**66,8**	**150,8 %**	**100,0**
tovarlar	*41,1*	*63,5*	*154,5*	*95,0*
xizmatlar	*3,2*	*3,3*	*103,1*	*5,0*
Import	**78,6**	**122,6**	**155,9 %**	**100,0**
tovarlar	*78,6*	*122,6*	*155,9*	*100,0*
Saldo	**-34,3**	**-55,8**	**x**	**x**

Eksport hajmi 66,8 mln. AQSh dollari (50,8 % ga ko'paygan) bo'lib, import hajmi 122,6 mln. AQSh dollarini (55,9 % ga ko'paygan) tashkil etdi. Hisobot davrida 55,8 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-aprel mln. AQSh dollari, ulushi % da)

Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha jahonning 74 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasi (25,0 %), Braziliya (20,5 %), Rossiya Federatsiyasi (13,5 %), Turkiya (9,9 %), Qirg‘iz Respublikasi (7,5 %), Koreya Respublikasi (4,8 %) va Qozog‘iston (3,9 %) davlatlariga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi

yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga import tovarlarning o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI
(yanvar-aprel mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	**30,9**	**20,7**	**47,3**
Eksport	1,2	3,3	8,9
Import	29,7	17,4	38,4
Saldo	-28,5	-14,1	-29,5
Braziliya	**0,0**	**6,4**	**38,0**
Eksport	0,0	0,0	-
Import	-	6,4	38,0
Saldo	-	-6,4	-38,0
Rossiya Federatsiyasi	**24,7**	**43,3**	**25,6**
Eksport	10,1	11,1	15,4
Import	14,6	32,2	10,2
Saldo	- 4,5	- 21,1	5,2
Turkiya	**16,2**	**13,7**	**18,8**
Eksport	4,3	6,3	9,6
Import	11,9	7,4	9,2
Saldo	-7,6	-1,1	0,4

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Qirg‘iz Respublikasi	**15,1**	**11,4**	**14,1**
Eksport	14,6	11,3	14,1
Import	0,5	0,1	0,0
Saldo	14,1	11,2	14,1
Koreya Respublikasi	**5,3**	**1,9**	**9,0**
Eksport	0,1	0,2	0,4
Import	5,2	1,7	8,6
Saldo	-5,1	-1,5	-8,2
Qozog‘iston	**8,9**	**4,7**	**7,4**
Eksport	5,9	3,8	4,8
Import	3,0	0,9	2,6
Saldo	2,9	2,9	2,2
Turkmaniston	**4,3**	**3,0**	**4,5**
Eksport	2,6	1,9	3,0
Import	1,7	1,1	1,5
Saldo	0,9	0,8	1,5
Ukraina	**4,5**	**2,5**	**3,0**
Eksport	3,7	0,8	1,3
Import	0,8	1,7	1,7
Saldo	2,9	-0,9	-0,4
Germaniya	**3,5**	**1,6**	**2,9**
Eksport	0,0	0,1	0,2
Import	3,5	1,5	2,7
Saldo	-3,5	-1,4	-2,5

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 30,5 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yilning yanvar-aprel oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 2,3 martaga oshgan va jami TSA dagi ulushi 69,5 % ni tashkil etdi.

XORAZM VILOYATINING EKSPORTI
(2021- yil yanvar-aprel)

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning eksportyorlari soni 63 tani tashkil etib, ular tomonidan 66,8 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 50,8 % ga ko‘paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 95,1 % ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (53,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (26,8 %), turli xil tayyor buyumlar (8,7 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 26,8 %
- Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari – 4,9 %
- Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar – 0,1 %
- Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 0,1 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar – 0,3 %
- Sanoat tovarlari – 53,7 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari – 0,5 %
- Turli xil tayyor buyumlar – 8,7 %
- Xizmatlar – 4,9 %

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel)

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	o‘tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o‘tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o‘tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	**66,8**	**150,8**	**100,0**	**41,4**	**140,0**	**100,0**	**25,4**	**172,7**	**100,0**
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	17,8	2,2 m.	26,8	14,2	2,3 m.	34,3	3,6	193,5	14,3
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	3,3	42,1	4,9	0,8	18,3	1,9	2,5	70,5	9,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar	0,0	-	0,1	0,0	-	0,1	-	-	-
Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,1	49,6	0,1	0,1	49,6	0,2	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	0,2	181,3	0,3	0,2	181,3	0,5	-	-	-
Sanoat tovarlari	35,9	178,8	53,7	17,7	152,6	42,8	18,2	2,1 m.	71,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,4	4,0 m.	0,5	0,4	4,0 m.	0,9	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	5,8	122,3	8,7	5,7	121,0	13,8	0,1	-	0,3
Xizmatlar	3,3	103,0	4,9	2,3	95,3	5,5	1,0	126,6	3,9

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlarga to‘g‘ri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020 - yilning yanvar-apreliga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari), mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar, hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar eksportida pasayish kuzatildi.

EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-aprel, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	**100,0**	**100,0**	**100,0**
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	56,9	18,4	26,8
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	9,0	17,5	4,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar	1,0	-	0,1
Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	-	0,3	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	0,5	0,3	0,3
Sanoat tovarlari	23,5	45,3	53,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,0	0,2	0,5
Turli xil tayyor buyumlar	0,2	10,7	8,7
Xizmatlar	8,9	7,2	4,9

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARINING DINAMIKASI
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi % da)



2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 23,0 %), Qirg‘iz Respublikasi (21,1 %), Turkiya (14,3 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,3 %), Qozog‘iston (7,2 %), Turkmaniston (4,4 %) va Tojikiston (2,9 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi umumiy ulushi 86,2 foizni tashkil etmoqda.

XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-aprel, % da)



2021- yilning yanvar-aprel oylarida o‘tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeini saqlab turibdi. Keyingi holatda Qirg‘iz Respublikasi va Turkiya o‘rin egallagan.

XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI
(yanvar-aprel)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O‘sish sur’ati, % da		O‘rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	11,1	15,4	109,5	138,8	2	1
Qirg‘iz Respublikasi	11,2	14,1	76,8	125,5	1	2
Turkiya	6,3	9,6	147,6	151,7	3	3
Xitoy Xalq Respublikasi	3,3	8,9	2,8 m.	2,7 m.	5	4
Qozog‘iston	3,8	4,8	64,4	126,6	4	5
Turkmaniston	1,9	3,0	73,5	157,1	6	6

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari) kiradi.

XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

XSST tarkibi	Rossiya		Qirg‘iziston		Turkiya		XXR	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	**11,1**	**15,4**	**11,2**	**14,1**	**6,3**	**9,6**	**3,3**	**8,9**
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,0	1,5	0,7	6,7	0,3	0,3	0,1	0,4
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,0	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	0,1	0,0	4,0	0,4	1,5	1,0	0,4	0,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar	-	0,0	-	-	-	0,0	-	-
Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	-	-	0,0	0,0	-	-	-	-
Sanoat tovarlari	8,8	12,7	1,8	2,2	4,5	8,2	2,8	8,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,0	-	0,0	0,4	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	0,0	0,2	4,7	4,4	0,0	0,1	0,0	0,0
Xizmatlar	1,2	1,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Xizmatlar eksporti hajmi 3,3 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 4,9 % ni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ga ko‘payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (59,1 %), safarlar (turizm) (31,4 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq xizmatlar (9,5 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel, ulushi % da)



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 17,0 mln. dollar qiymatli yoki 28,1 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 12,2 mln. AQSh dollariga teng 23,8 ming tonna sabzavot, shuningdek, 4,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi 4,3 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 25,4 % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI
(2021- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘plangan tajribaga ham bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo‘jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg‘iz Respublikasi (10,3 %), Qozog‘iston (4,5 %), Turkmaniston (2,4 %) va Rossiya Federatsiyasi (2,2 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

XORAZM VILOYATINING IMPORTI
(2021- yil yanvar-aprel)

2021- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi 122,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 55,9 % ga ko‘paygan.

Import tarkibida eng katta ulush oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (37,3 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (29,2 %), turli xil tayyor buyumlar (15,9 %) hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari,6,3 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 37,3 %
- Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari – 6,3 %
- Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar – 0,9 %
- Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 0,1 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar – 5,1 %
- Sanoat tovarlari – 5,1 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari – 29,2 %
- Turli xil tayyor buyumlar –15,9 %

Tovar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-aprelida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 43,9 mln. AQSh dollariga ko‘paygan va 122,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel)

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	**122,6**	**155,9**	**100,0**	**16,4**	**44,6**	**100,0**	**106,2**	**2,5 m.**	**100,0**
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	45,8	156,6	37,4	4,4	20,7	26,4	41,4	5,0 m.	39,1
Ichimliklar va tamaki	0,0	4,0 m.	0,0	0,0	4,0 m.	0,1	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,7	74,7	6,3	6,0	85,5	36,6	1,7	51,7	1,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	1,1	2,5 m.	0,9	0,6	154,2	3,7	0,5	13,9 m.	0,4
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	5,0	0,1	0,1	3,4	0,6	0,1	127,7	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	6,2	2,0 m.	5,1	1,1	124,5	6,9	5,1	2,3 m.	4,8
Sanoat tovarlari	6,3	155,2	5,1	1,7	79,9	10,1	4,6	2,3 m.	4,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	35,8	165,8	29,2	1,6	84,6	9,9	34,2	173,7	32,2
Turli xil tayyor buyumlar	19,5	2,9 m.	15,9	0,9	178,6	5,7	18,6	3,0 m.	17,5

IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami import	**100,0**	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,5	37,2	37,3
Ichimliklar va tamaki	-	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	8,0	13,2	6,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar	0,1	0,5	0,9
Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,3	4,0	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	3,0	3,9	5,1
Sanoat tovarlari	4,4	5,2	5,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	56,4	27,5	29,2
Turli xil tayyor buyumlar	23,2	8,6	15,9

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi % da)



2020- yil bilan taqqoslaganda import bo‘yicha eng yuqori yettitalikda o‘zgarish kuzatilmadi.

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bo‘yicha Xorazm viloyati tomonidan 45 davlat bilan tovarlar importi amalga oshirildi.

XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI
(yanvar-aprel)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O‘sish sur’ati, % da		O‘rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	17,4	38,4	58,8	2,2 m.	2	1
Braziliya	6,4	38,0	-	5,9 m.	4	2
Rossiya Federatsiyasi	32,2	10,2	2,2 m.	31,5	1	3
Turkiya	7,4	9,2	61,8	125,6	3	4
Koreya Respublikasi	1,7	8,6	32,8	5,1 m.	5	5
Germaniya	1,5	2,7	41,8	183,9	6	6
Qozog‘iston	0,9	2,6	31,2	2,7 m.	7	7

XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-aprel)



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi
Tel.: (62) 224-65-09